



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023-yil 1-may holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) **20 779** tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar **17 582** ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining kamayishi **86,8** foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **85,3** foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-may holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda **443** taga kamayganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar **194** taga, oilaviy korxonalar **188** taga kamaygan.



Hududlar kesimida

Jizzax sh.	297	5,4 %	Baxmal t.	65	4,6 %
G‘allaorol t.	209	10,8 %	Mirzacho‘l t.	64	7,7 %
Zomin t.	150	8,3 %	Paxtakor t.	54	5,2 %
Sharof Rashidov t.	135	5,0 %	Zafarobod t.	46	7,1 %
Forish t.	106	6,7 %	Yangiobod t.	42	8,3 %
Zarbdor t.	104	9,1 %	Do‘stlik t.	37	4,0 %
Arnasoy t.	69	8,7 %			

2023-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2023-yil 1-may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **20 779** tani tashkil etib. 2022-yilning mos davriga (**23 936** ta) nisbatan **3 157** taga quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli kamayganligi bilan ifodalash mumkin: savdo – **6 169** tadan **5 464** taga (kamayish **705** ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4 127** tadan **3 719** taga (kamayish **408** ta), sanoat – **3 791** tadan **3 002** taga (kamayish **789** ta).

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	5 465	Paxtakor t.	1 031
Sharof Rashidov t.	2 689	Do'stlik t.	926
G'allaorol t.	1 938	Mirzacho'l t.	834
Zomin t.	1 803	Arnasoy t.	791
Forish t.	1 586	Zafarobod t.	649
Baxmal t.	1 419	Yangiobod t.	506
Zarbdor t.	1 142		

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo





Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni **1 350** ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar **1 346** ta;
- yirik korxonalar **4** ta.



Hududlar kesimida

Jizzax sh.	284	6,0 %	Mirzacho'l t.	64	9,4 %
G'allaorol t.	203	12,1 %	Baxmal t.	62	5,3 %
Zomin t.	150	9,9 %	Paxtakor t.	54	6,3 %
Sharof Rashidov t.	133	5,6 %	Zafarobod t.	45	8,8 %
Forish t.	106	7,6 %	Yangiobod t.	41	10,0 %
Zarbdor t.	102	10,6 %	Do'stlik t.	37	4,9 %
Arnasoy t.	69	10,6 %			


2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- may holatiga **17 663** taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **137,5** foizni tashkil etdi (**4 820** ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – **30,9** foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – **20,8** foiz, sanoat – **17,0** foiz, qurilish – **9,1** foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **7,0** foiz, tashish va saqlash – **2,5** foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – **1,5** foiz, axborot va aloqa – **1,2** foiz, boshqa turlari – **9,9** foiz.

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	4 743	Paxtakor t.	853
Sharof Rashidov t.	2 364	Do'stlik t.	752
G'allaorol t.	1 671	Mirzacho'l t.	683
Zomin t.	1 511	Arnasoy t.	654
Forish t.	1 392	Zafarobod t.	511
Baxmal t.	1 159	Yangiobod t.	411
Zarbdor t.	959		

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan **84** tadan **104** taga (ko'payish **20** taga) ko'paydi.



Hududlar kesimida

Jizzax sh.	283	6,0 %	Mirzacho'l t.	64	9,4 %
G'allaorol t.	203	12,2 %	Baxmal t.	62	5,4 %
Zomin t.	149	9,9 %	Paxtakor t.	54	6,4 %
Sharof Rashidov t.	133	5,6 %	Zafarobod t.	45	8,8 %
Forish t.	105	7,6 %	Yangiobod t.	41	10,0 %
Zarbdor t.	101	10,6 %	Do'stlik t.	37	5,0 %
Arnasoy t.	69	10,6 %			

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Shahar va tumanlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Jizzax shahrida (**26,8 foiz**), Sharof Rashidov (**13,4 foiz**), G'allaorol (**9,5 foiz**), Zomin (**8,5 foiz**) va Forish (**7,9 foiz**) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	4 704	Paxtakor t.	850
Sharof Rashidov t.	2 361	Do'stlik t.	747
G'allaorol t.	1 666	Mirzacho'l t.	679
Zomin t.	1 503	Arnasoy t.	653
Forish t.	1 388	Zafarobod t.	509
Baxmal t.	1 157	Yangiobod t.	411
Zarbdor t.	954		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2023- yil 1- may holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Forish t.	685
Sharof Rashidov t.	430
G‘allaorol t.	356
Baxmal t.	351
Arnasoy t.	282
Zomin t.	281
Jizzax sh.	275
Zarbdor t.	238
Mirzacho‘l t.	205
Do‘stlik t.	196
Zafarobod t.	151
Yangiobod t.	149
Paxtakor t.	120



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	834
Sharof Rashidov t.	417
G'allaorol t.	342
Zomin t.	281
Zarbdor t.	192
Forish t.	165
Paxtakor t.	142
Do'stlik t.	136
Baxmal t.	135
Mirzacho'l t.	123
Zafarobod t.	94
Arnasoy t.	90
Yangiobod t.	51



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini sonining o'sish sur'ati **103,2** foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning **14,4** foiz ulushini tashkil etdi. Shundan **95,0** foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yil ning mos davriga nisbatan o'sish **79,3** foiz), **3,3** foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish **74,4** foiz), **1,3** foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish **84,4** foiz) va **0,4** foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish **76,5** foiz) tashki etgan.



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	625
Sharof Rashidov t.	240
G'allaorol t.	131
Zomin t.	105
Zarbdor t.	94
Paxtakor t.	85
Forish t.	74
Baxmal t.	56
Do'stlik t.	54
Mirzacho'l.	54
Arnasoy t.	47
Yangiobod t.	26
Zafarobod t.	22



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi **52,6** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **75,3** foizga kamaygan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi **21,1** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **81,2** foizga kamaygan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi **26,2** foiz ulushni va **75,9** foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

423


Fuqarolik
obyektlarini qurish

341

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

849


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	1 623
Sharof Rashidov t.	779
G'allaorol t.	509
Zomin t.	493
Baxmal t.	402
Paxtakor t.	319
Forish t.	294
Zarbdor t.	225
Do'stlik t.	217
Mirzacho'l t.	165
Arnasoy t.	164
Zafarobod t.	161
Yangiobod t.	113



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning **99,8** foizi yoki **5 453** tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi **63,5** foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati **89,6** foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida **25,2** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati **84,4** foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida **11,3** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati **92,8** foizni tashkil etdi.

617

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 376

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


3 471

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	382
Sharof Rashidov t.	208
Zomin t.	116
G'allaorol t.	99
Zarbdor t.	75
Paxtakor t.	72
Baxmal t.	57
Do'stlik t.	54
Mirzacho'l t.	54
Forish t.	49
Zafarobod t.	33
Yangiobod t.	21
Arnasoy t.	12



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan **117,0** foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'harlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning **8,1** foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining **91,9** foiz ulushini tashkil etdi.

100

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 132


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	117
G'allaorol t.	21
Sharof Rashidov t.	17
Zomin t.	17
Baxmal t.	14
Paxtakor t.	13
Zarbdor t.	8
Do'stlik t.	6
Mirzacho'l t.	6
Yangiobod t.	5
Zafarobod t.	4
Forish t.	4
Arnasoy t.	3



2023- yil 1- may holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining **10,2** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **96,0** foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining **26,8** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **64,3** foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning **63,0** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **101,4** foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	169
Zomin t.	31
G'allaorol t.	30
Sharof Rashidov t.	20
Baxmal t.	19
Paxtakor t.	14
Zarbdor t.	11
Mirzacho'l t.	11
Do'stlik t.	9
Forish t.	9
Yangiobod t.	8
Zafarobod t.	7
Arnasoy t.	5



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi **343** ta yoki **1,6** foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

92,7 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,0** foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni **4,7** foizni tashkil etib, o'sish sur'ati **76,2** foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning **2,6** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **90,0** foizni tashkil etdi;



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	167
Sharof Rashidov t.	92
Zomin t.	31
G'allaorol t.	26
Do'stlik t.	23
Paxtakor t.	23
Zarbdor t.	22
Baxmal t.	20
Mirzacho'l t.	14
Arnasoy t.	12
Yangiobod t.	8
Zafarobod t.	7
Forish t.	7



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning **2,2** foiz ulushini tashkil etdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati **76,3** foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati **71,6** foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi **57,9** foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **100,0** foizni tashkil etdi;


suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni mavjud emas.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot
2023- yil 1- may holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	230	Mirzacho'l t.	60
Zomin t.	113	Baxmal t.	56
Sharof Rashidov t.	104	Do'stlik t.	33
Forish t.	102	Zafarobod t.	32
Zarbdor t.	95	Yangiobod t.	32
G'allaorol t.	83	Paxtakor t.	30
Arnasoy t.	60		


2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2023- yil 1- may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan **17 748** ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining **12 464** tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda **106,9** foiz, yashash va ovqatlanishda **89,8** foiz, savdoda **90,7** foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **94,8** foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	3 733	Do'stlik t.	584
Sharof Rashidov t.	1 917	Mizacho'l t.	475
Zomin t.	971	Arnasoy t.	473
Baxmal t.	932	Paxtakor t.	459
Forish t.	886	Zafarobod t.	310
G'allaorol t.	841	Yangiobod t.	211
Zarbdor t.	672		


2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-aprel oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan **21** taga, sanoat **18** taga ko'paygan.


Hududlar kesimida

G'allaorol t.	103	Sharof Rashidov t.	4
Jizzax sh.	17	Mirzacho'l t.	4
Yangiobod t.	9	Paxtakor t.	4
Zafarobod t.	9	Do'stlik t.	1
Arnasoy t.	6	Zarbdor t.	1
Zomin t.	5	Forish t.	1
Baxmal t.	4		

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan **26,1** foizga kamaydi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan kamayishiga savdo (**78,3** foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (**78,5** foiz), sanoat (**67,7** foiz), tumanlar kesimida esa, G'allaorol (**89,3** foiz), Arnasoy (**87,0** foiz) va Yangiobod (**82,2** foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida

G'allaorol t.	592	Mirzacho'l t.	154
Jizzax sh.	483	Arnasoy t.	140
Forish t.	427	Zarbdor t.	140
Zomin t.	316	Baxmal t.	138
Paxtakor t.	192	Zafarobod t.	120
Sharof Rashidov t.	181	Do'stlik t.	79
Yangiobod t.	162		

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	36
Zomin t.	32
Sharof Rashidov t.	25
Paxtakor t.	20
G'allaorol t.	17

Zarbdor t.	6
Arnasoy t.	3
Zafarobod t.	3
Baxmal t.	2
Do'stlik t.	2

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- may holatiga ko'ra 2021- yilning mos davriga nisbatan **264** taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalaridagi korxonalar: savdoda **283** tadan **442** taga (o'sish **159** taga), sanoatda **649** tadan **665** taga (o'sish **16** taga), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish **5** tadan **17** taga (o'sish **12** taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	452	Zafarobod t.	66
Sharof Rashidov t.	243	Baxmal t.	58
G'allaorol t.	211	Mirzacho'l t.	38
Zomin t.	194	Forish t.	37
Paxtakor t.	193	Arnasoy t.	24
Zarbdor t.	121	Yangiobod t.	16
Do'stlik t.	81		

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2023- yil yanvar-aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




1

6,2 %

Savdo



Axborot va aloqa



7

6,9 %

Sanoat



Tashish va saqlash



Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



1

10,0 %

Boshqa turlar

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	4	Zomin t.	1
Baxmal t.	1	Mirzacho‘l t.	1
G‘allaorol t.	1	Yangiobod t.	1

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,3 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 74 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkiya egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 40,7 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 22,0 foiz), Xitoy (ulushi 20,3 foiz) va Angliya (ulushi 13,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	57	Do'stlik t.	7
Forish t.	27	Yangiobod t.	7
Sharof Rashidov t.	19	Paxtakor t.	6
G'allaorol t.	12	Zafarobod t.	5
Zomin t.	11	Mirzacho'l t.	5
Arnasoy t.	9	Zarbdor t.	3
Baxmal t.	7		

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan **115** tasi qo'shma korxonalar, **67** tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

67	Jizzax viloyati	115
22	Jizzax shahri	35
8	Sh.Rashidov tumani	11
7	Forish tumani	20
6	Zomin tumani	8
5	G'allaorol tumani	7
5	Zafarobod tumani	1
4	Do'stlik tumani	3
3	Arnasoy tumani	6
3	Mirzacho'l tumani	2
2	Yangiobod tumani	5
1	Zarbdor tumani	3
1	Paxtakor tumani	7
0	Baxmal tumani	7

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish
boʻlimi
Tel.: (72) 221-51-24